



UDK:371

Zebiniso JAMOLOVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

E-mail: jamolovazebiniso120@gmail.com

O'zDJTU katta o'qituvchisi H.O'rinboyeva taqrizi asosida

MODERN METHODS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES

Annotatsiya

This article analyzes the process of language learning from the point of view of innovative pedagogy. In addition, the purpose, subject, tasks and relevance of the modern methodology in teaching foreign languages have been widely covered, and some innovative methods in teaching foreign languages have been mentioned. In particular, the methods used in the organization of effective teaching of foreign languages, as well as their development of independent thinking and cognitive skills in students, are explained with scientific foundations.

Key words: Innovation, methodology, student-centered teaching, critical thinking, inclusive education, interdisciplinary approach, integration.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

Аннотация

В данной статье анализируется процесс изучения языка с точки зрения инновационной педагогики. Кроме того, широко освещены цель, предмет, задачи и актуальность современной методики обучения иностранным языкам, а также упомянуты некоторые инновационные методы обучения иностранным языкам. В частности, с научной точки зрения объясняются методы, используемые в организации эффективного обучения иностранным языкам, а также развитии ими самостоятельного мышления и познавательных навыков у студентов.

Ключевые слова: Инновации, методология, личностно-ориентированное обучение, критическое мышление, инклюзивное образование, междисциплинарный подход, интеграция.

CHET TILLARINI O'QITISH METODIKASIDA ZAMONAVIY METODLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada innovatsion pedagogika nuqtayi nazaridan til organish jarayoni tahlil qilingan. Shu bilan bir qatorda, chet tillarini o'qitishda zamonaviy metodikaning maqsadi, predmeti, vazifalari hamda dolzarbligi keng yoritilgan bo'lib, xorijiy tillarni o'qitishda ayrim innovatsion metodlar keltirib o'tilgan. Xususan, chet tillarini samarali o'qitishni tashkil etishda qo'llaniladigan metodlar hamda ularning talabalarda mustaqil fikrlash va ularda kognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish ilmiy asoslar bilan yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, metodika, student-centered teaching, tanqidiy fikrlash, inkluziv ta'lim, fanlararo yondashuv, integratsiya.

Kirish. Globallashtan davrda har bir soha innovatsion texnologiyalar hamda g'oyalarni talab qilmoqda, ta'lim sohasi ham bundan mustasno emas. "Innovatsion" so'zi inglizchada "yangilik kiritish" yoki "yangilikni tarqatish" degan ma'nolarni anglatadi. Ushbu atamaning ilmiy, ijtimoiy-psixologik aspektlari Everett M. Rogers tomonidan ishlab chiqilgan. U innovatsiyalarning jamiyatga qanday kirib borishi va odamlar ularni qabul qilish tezligi haqida ilmiy ishlarini olib borgan. Ayniqsa kun sayin pedagogikada yangiliklarga hamda zamonaviy yondashuvlarga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Shu sababli jahon ta'lim-fan taraqqiyoti kundan kunga gurkirab rivojlanib bormoqda, bu esa o'z navbatida chet tillari o'rgatuvchilariga ham o'rganuvchilarga ham keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Aynan samarali o'qitish metodlarining kashf etilishi hamda amaliyotga tadbiiq etilishi ham aynan innovatsion texnologiyalarga bo'lgan talabning mahsulidir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Til kishilik jamiyatida asosiy muloqot vositasi bo'lib, tabiiy muhitda, ya'ni dastlab oilada, jamiyatda hamda uyushgan holda amaliy tarzda o'rganiladi. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonda ko'p tillilik ulkan ahamiyat kasb etmoqda, xususan mamlakatimizda

ham ko'plab o'quvchi va talabalar, asosan, ona tili, ikkinchi til va chet tillarini o'rganishmoqda.

Ona tili bu inson tafakkur qiladigan tili, ya'ni ongida hayol yoki ma'lum narsani o'ylaganda qaysi tildan foydalansa, demak, o'sha til uning ona tilisi. Masalan, o'zbek millatiga mansub inson o'zbek tilida ongida tafakkur qilsa, o'zbek tili uning ona tilisidir. Ikkinchi til esa inson yashaydigan hududda ona tilidan keyingi o'rinda jamiyatda eng ko'p foydalaniladigan til hisoblanadi. Xususan, O'zbekistonda yillar davomida o'zbek tilidan keyin ko'pincha rus tili muloqotda va hujjatlarda ishlatilgan. Shu sababli, rus tilini bolalar yoshligidan oila a'zolaridan yoki maktabda ikkinchi til sifatida muloqot jarayonida tabiiy ravishda o'rganishadilar. Chet tili esa xorijiy mamlakatlar tillari hisoblanadi. Mamlakatimizda chet tili sifatida G'arbiy yevropa tillari (ingliz, nemis, ispan, fransuz), Sharq mamlakatlari tillari (yapon, kareys, xitoy, turk) o'qitilib kelinmoqda.

Ma'lumki, ona tili va ikkinchi til ko'p hollarda tabiiy muhitda, ya'ni oilada, jamiyatda o'rganiladi, ammo chet tili esa sun'iy muhitda o'rganiladi. Asosan, darslar orqali, o'qituvchi ko'magida so'zlarni hamda grammatik qoidalarni o'zlashtirgan holda o'rganiladi. Ona tili, ikkinchi til hamda chet tillarini

o'qitish ba'zi jihatlar bilan bir biridan keskin farq qiladi. Bu esa o'z navbatida, har biri uchun o'zgacha metod va texnologiyalarni qo'llashni talab qiladi. Ayniqsa, chet tili o'qituvchilari o'qitish metodologiyasi fanini puxta egallagan bo'lishlari lozim. Bu orqali xorijiy til o'qituvchilari o'quvchi va talabaning bilimni aniqlash va uni takomillashtirishga yordam beradi. Qisqa qilib aytganda, xorijiy tillarni samarali tarzda o'qitish uning metodikasini bilishni taqazo etadi.

Metodika - bu ma'lum bir maqsadga erishish uchun qo'llaniladigan metodlar, usullar, yo'llar tizimi bo'lib, barcha ishlarni tartibli hamda samarali tarzda amalga oshirishga xizmat qiladi. Ta'limda metodika esa o'qitishning ilmiy asoslangan yo'llari, usullari hamda yondashuvlari bo'lib, pedagogikaning alohida bo'limi hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, har bir fan uchun maxsus metodika ishlab chiqilgan. Masalan, ingliz tili o'qitish metodikasi, matematikani o'qitish metodikasi va boshqalar.

O'quv fanining aynan nimani qay tarzda, kimlar bilan, qayerda o'rganishini metodikaning predmeti ko'rsatib beradi. Chet tillarini o'qitish metodikasi predmeti esa chet tilini o'rganish va o'rgatish jarayonidir. Demak, chet tillari metodikasi quyidagilarni o'rganadi.

Nimani o'qitish kerak? – til materialidir, masalan, grammatika, leksika, fonetika, talaffuz, so'z yodlash va boshqalar.

Nega o'qitish kerak? – maqsad va vazifalaridir. Til ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan.

Qanday o'qitish kerak? – yondashuv, metod, usul va vositalar.

Kimni o'qitish kerak? – o'quvchi, talaba hamda o'rganuvchilarning yosh xususiyatlari.

Qayerda va qaysi sharoitda o'qitish kerak? – maktabda, oliygohda, kursda hamda online platformalarda.

Tadqiqot metodologiyasi

Chet tillarini o'qitish metodikasi quyidagi tushunchalarni o'z ichiga oladi. Yondashuv (Approach) – chet tillarini o'qitishga umumiy qarash hisoblanadi. Bunda o'qituvchi o'rganuvchilarga qay tarzda yondashishni tanlaydi. U shunday yondashuvni qo'llashi kerakki, til o'rganish jarayoni barcha uchun manfaatli, samarali hamda ijobiy natijaga ega bo'lgan holda amalga oshirilishi lozim. Masalan, individual yondashuvda o'qituvchi har bir o'quvchi yoki talabaga uning shaxsiy xususiyatlari, imkoniyatlari, qiziqishlari va iqtidorlaridan kelib chiqqan holda turli xil usullardan foydalanib dars o'tadi. Shuningdek, kommunikativ yondashuv, kompetensiyaga asoslangan yondashuv kabilar mavjud.

Metod – ta'lim jarayonini tashkil etishning ma'lum bir aniqlanadigan yo'li bo'lib, o'rganuvchilar yoshi, bilim ko'nikmalari hamda mavzularga asoslangan holda tanlangan yo'ldir. Masalan, ingliz tilini o'rgatishda grammatik-tarjima (grammar translation method), audiolingual metod va boshqalar. Bularga keyinchalik batafsil to'xtalib o'tiladi.

Usul (technique) – anish mashq yoki faoliyatni bajarish usulidir. Masalan, ro'lli o'yinlar, dialog, gaplarni to'ldirish, test....

Vositalar – o'qitishda foydalaniladigan buyumlar, material va texnologiyalar. Misol uchun, elektron doska, kitoblar, multimedia hamda ilovalar.

Chet tili o'qituvchisi o'quvchi va talabalarga ingliz tilini o'rgatish uchun kommunikativ yondashuvni afzal ko'rdi, ya'ni bunda real vaziyatlar, muloqot, dialoglar yordamida dars jarayoni tashkillashtiriladi. Undan so'ng o'qituvchi ushbu yondashuvga mos metoddan foydalanadi, masalan, Total physical response TPR (o'zbekchada to'liq jismoniy javob usuli) metodini qo'llaydi, bunda o'qituvchi bolalarga ingliz tilidagi so'zlarni harakatlari orqali ko'rsatib tushuntirib beradi,

ushbu metod, o'z navbatida, inglizcha so'zlar harakat orqali vizual tarzda bolalar xotirasida samarali tarzda eslab qolinadi.

David Nunanning fikriga ko'ra dars faoliyati imkon qadar real hayotni aks ettirishi va haqiqiy kommunikatsiyani o'z ichiga olishi kerak. Bundan ko'rinib turibdiki, chet tillari o'qituvchilaridan katta mahorat talab qilinadi, ya'ni dars faqatgina grammatik qoidalar hamda nazariy bilimlardangina emas, balki o'rganilayotgan til doirasida muloqot, interaktiv topshiriqlar, muhokamalardan iborat bo'lishi kerak.

O'qitish prinsiplari ustida tadqiqotlar olib borgan Oxford universitetining professor o'qituvchisi H. Douglas Brown ko'p yillar olib borgan kuzatishlari natijasida quyidagi xulosaga keladi. "Samarali til o'qitish mexanik hamda nazariy mashqlardan ko'ra o'rganuvchi mustaqilligi, motivatsiyasi va mazmunli muloqotni talab qiladi". O'tgan yillar davomida qo'llanib kelingan an'anaviy o'qitish metodlaridan, vositalaridan yangicha innovatsion usul hamda yondashuvlarga o'tilsa, bugungi qiziqqon yosh avlod o'quvchi-talabalariga nafaqat xorijiy tillarni, balki barcha sohada samarali bilim hamda ko'nikma berish osonlashadi. Qachonki, dars jarayoni o'qituvchi markazidan o'quvchi markaziga o'tganda, o'rganilayotgan chet tilidagi haqiqiy muloqot, mustaqillik o'quvchining shaxsiy tajribasi, qiziqishi, muammolarga yechim topa olishi, omma oldida fikrini erkin bayon eta olish kabi ko'nikmalarini shakllantiradi. Til ko'nikmalari hamda yuqorida sanab o'tilgan ko'nikmalarni bir vaqtda rivojlantirish uchun bir qancha metodlar yaratilgan, amaliyotga joriy etilganda va natija ko'rilgan.

Tahlillar va natijalar. Quyida chet tillarini zamonaviy o'qitish metodlarining muhim xususiyatlari keltirilgan.

Talabalarga yo'naltirilgan ta'lim (Student-centered Teaching).

Zamonaviy o'qitish metodikasida, o'quvchi va talabalar markazda bo'ladi, ya'ni sinfda faqatgina o'qituvchi nazariy bilimlarni bermaydi, topshiriqlarni taqdim etib, ularni tekshirmaydi. Aksincha o'rganuvchilar bilan birgalik amalga oshiriladi. Demak, zamonaviy til o'qitish metodikasida, o'rganuvchilar yangi mavzu haqidagi bilimlarini bir-biri bilan bo'lishishlar mumkin, topshiriqlarni o'zlari mustaqil tarzda tayyorlab kelib ularni boshqalarga taqdim etishlari, tekshirishlari, o'zaro fan yuzasidan savol-javoblar, muhokamalar tashkil etishlari mumkin. An'anaviy yondashuvlardan farqli o'laroq, o'rganilayotgan tilga nibatan sinfda faol ishtirok, muntazam fikr-mulohazalar, izlanish, yaratuvchanlik rag'batlantiriladi.

Texnologiyalar integratsiyasi.

Zamonaviy o'qitish o'zining interaktiv tabiati bilan ajralib turadi. YA'ni sinfda eng yangi ta'lim texnologiyalari qo'llanishi muhim hisoblanadi. Masalan, electron doskalar, AR/VR to'plamlari va boshqalar. Texnologiyalardan foydalanishning ahamiyatli jihati shundaki, ba'zi o'quvchilar chet tilidagi so'zarni eshitib o'rganadi, ba'zilar esa vizual tarzda ko'rib o'rganadi.

Tanqidiy fikrlash. Eng asosiy jihatlardan biri aynan tanqidiy fikrlash bo'lib, o'qituvchi muntazam tarzda haqiqiy real vaziyatlarda duch kelinadigan muammolarni taqdim etadi. O'quvchi va talabalar ushbu muammolarga o'rganilayotgan xorijiy tilgan foydalanib, ya'ni bir-biri bilan o'sha tilde muloqotda bo'lib yechim topadilar. Bu orqali ham til ko'nikmalari bilan birgalikda ijodiy va tanqidiy fikrlash ham teng rivojlanadi.

Individual yondashuv. Unda ta'lim oluvchining imkoniyatlari, qiziqishlari, iqtidoridan kelib chiqib nazariy, amaliy va metodik mashg'ulotlar tashkil etiladi. Bunda mashg'ulotlarning rang-barang bo'lishiga e'tibor qaratilib, qaysi mashg'ulot shakli amaliy samara bersa, shu mashg'ulot turi tanlanadi. Eng muhim jihati shundaki, sinfda har bir

bolaning o'ziga yarasha qiziqishi, iqtidori va imkoniyati bor. Shuning uchun chet tili o'qituvchisi har bir o'rganuvchi bilan alohida e'tibor bilan ishlashi lozim. Shundagina hechbir o'rganuvchi o'z tengdoshlaridan ortda qolib ketmaydi.

Quyida chet tillarini o'qitishda jahon standartlariga to'la javob beruvchi, til o'qitish sinflarida qo'llanilgan hamda ijobiy natija berib kelayotgan metodlar va ularning maqsadi, vazifalari, muhim jihatlari keltirilgan. Ulardan foydalanish orqali o'quvchilar xorijiy tilni tezroq o'zlashtiradi, o'rganuvchining o'ziga ishonchini oshiradi, til "o'lik qoidalar majmui" emas, balki muloqot vositasi sifatida idrok qilinadi.

Flipped classroom. Ingliz tilidan o'zbekchaga tarjima qilinganda "teskari sinf" degan ma'noni bildiradi. An'anaviy o'qitish tizimidan farqli o'laroq, ushbu metodda o'quvchilar nazariy materiallarni uyda mustaqil tarzda o'rganadilar. Masalan, yangi mavzu doirasida videodarslik, maqola va online materiallarni o'zlashtiradilar. Sinfda dars jarayoni esa asosan o'quvchilar uyda o'rganagan ma'lumotlar yuzasidan muhokama, mashg'ulotlar, topshiriqlar va amaliy faoliyatga qaratilgan bo'ladi. Flipped classroom metodining eng asosiy maqsadi sinfda faqatgina o'qituvchining ma'ruzasidan iborat darsni interaktiv dars jarayoniga almashishdir. birinchi marotaba 2007-yilda amerikalik kimyo fani o'qituvchilari Jonathan Bergmann va Aron Sams tomonidan ommalashtirilgan. Ular ilk tajribalarini Amerikaning Kolorado shtatida amalga oshirishgan bo'lib, darslik videolarini yozib, o'quvchilarga uyda ko'rib o'rganib kelishni taklif etishgan.

Project-based learning. (loyihaga asoslangan o'qitish) metodi. O'quvchi va talabalarga turli loyihalar yuklatish orqali o'rganilayotgan chet tilida fikrlash, muloqot, muhokama qilish imkonini beradi, uni mustahkamlashga yordam beradi. Bir guruh o'quvchilar beilgan loyiha ustida berilgan muddatga

qadar ishlaydilar. Ular tadqiqot o'tkazadi, natijalarni muhokama va tahlil qiladi va yakunida esa taqdimot orqali tayyorlagan loyiha ishini taqdim etadi. o'qituvchi esa zaruriy ko'rsatmalarni, manbaalarni ko'rsati hamda yakunida loyiha ishtirokchilarini baholaydi. Bu metod orqali o'rganuvchilarda ijodkorlik, jamoaviy ishlash, mustaqil o'rganish hamda til ko'nikmalari kuchayadi.

Gamification. O'quv jarayonlariga o'yin elementlarini kiritishdan iborat bo'lib, ball yig'ish, reyting, bosqichlarni bosib o'tish orqali o'quvchilar rag'batlantiriladi. Albatta, o'yinlar mavzudan tashqari bo'lmaydi. Bunda o'qituvchi tomonidan kreativlik talab qilinadi. Har bir mavzudan so'ng, ularni mustahkamlash maqsadida turli xil ta'limiy o'yinlar amalga oshiriladi. Masalan, hot potato, krassword va kahoot, role-playing va boshqalar. Gamification atamasi ilk bor ta'lim sohasiga o'yin dizayni bo'yicha tadqiqotchi Jane McGonigal va uning hamkasblari tomonidan kiritilgan.

Xulosa. Chet tillarini o'qitish ham pedagog ham o'quvchi uchun ham murakkab jarayon bo'lib, zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Bugungi davrda til o'rganish shaxsning kommunikativ ehtiyoji, intellektual salohiyati, madaniy kompetensiyasi va kasbiy raqobatbardoshligini shakllantirish uchun muhim bo'lib kelmoqda. Shu sababdan o'quv jarayonida qo'llanilayotgan yondashuv hamda metodlar o'quvchilarning individual ehtiyojlari, shu bilan bir qatorda, zamon talablariga javob berishi lozim.

Olib borilgan kuzatishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, yuqorida keltirilgan metodlar o'rganuvchilarni faol, mustaqil va ijodkor sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. An'anaviy usullarni zamonaviysiga uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Nunan. D. "Communicative tasks and the language curriculum". (2001) 25(2), 279-bet.
2. Brown.H.D. "Teaching principles: an interactive approach to language pedagogy" Longman, (2001) 46-bet.
3. Jabborova O, Ochilov F. Bolalar pedagogikasi. – Toshkent, 2022.
4. Chet tillarini o'qitish metodikasida zamonaviy metodlar. "Academic research in educational sciences" jurnali 523-bet.
5. Raxmanova M.K (2019). Ta'lim texnologiyalari orqali kasb tanlashda ongli munosabatni shakllantirish. Xalqaro ilmiy amaliy konferensiyasi.